

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKtablari O'QITUVCHILARINING IJTIMOIY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

Abdurashidova Diloromxon Rustamovna
QU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada umumiy o'rta talim maktablari o'qituvchilarning ijtimoiy komptentsiyalarini rivojlanishda foydalaniladigan BBB texnologiyasi, klaster metodi, tanqidiy tafakkur metodi, muammoli vaziyat metodi va boshqalar haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: kompetentsiya, ijtimoiylik, o'qituvchi, ijtimoiy komptentsiya, metod, muammoli vaziyat, klaster.

"Kompetentsiya" atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha "campetere"- muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan.

Hozirgi kunda "kompetentsiya" atamasi turli sohalarda qo'llaniladi: huquqshunoslik, tilshunoslik, madaniyat sohalarida, shuningdek tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning muhim kompetentsiyalari. Lekin xodimlarni boshqarish nuqtai nazaridan "kompetentsiya" atamasi qiziqtiradi, shuning uchun xodimlarning kasbiy kompetentsiyasi haqida fikr yuritamiz.

Amerikalik psixolog va inson motivatsiyasi tadqiqotchisi Devid Makliland tashkilot, muassasa yoki kompaniyaga kompetentli yondashuvning boshlanishida shuni ta'kidlaydiki, "Inson shaxsi o'rganilayotganda nomzod yoki xodim o'zining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari haqida to'g'ri javob bermaydi, chunki odam doimo o'zining meniga yuqori baho beradi, shuning uchun kompetentli yondashuv tashkilot, muassasa yoki kompaniya administratsiyasi tomonidan qonun doirasida ishlab chiqilishi kerak.

O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lif texnologiyalaridan foydalanish

Interfaol yondashuv. O'qituvchilar dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon beriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birligiga namoyish etadilar. Loyihalash metodi. Loyihalash metodi - o'quvchilar uzlusiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimidir. Ta'lif oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.)masalalar bilan bog'liq loyihalarni bajaradilar. Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi. Loyihalash metodi orqali o'quvchilarda quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma'suliyatni his etish; o'ziga ishonch; o'qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko'ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko'ra bilish; tashxislash; motivatsiya.


Tanqidiy tafakkur metodi Muammoli modulli ta'lim metodi. Muammoli modulli ta'lim metodi olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni nazarda tutadi. Mazkur metod o'qitishning turli modellarining didaktik asosini tashkil etib, o'qitish vositalari va pedagogik texnikaning qo'llash usulari bilan farqlanadi. U o'quv predmetini nisbatan kichik bo'laklarga – modullarga bo'lishni ifodalaydi

O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo`naltirilgan ta'lim.

Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchiodamni Shaxs deb ataladi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik shaxsga aylanadi. Individ tushunchasida kishining nasl-nasabi mujassamlashgandir.

Loyihalash metodi - o'quvchilar uzlusiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejlash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimidir. ta'lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.) masalalar bilan bog'liq loyihalarni bajaradilar. Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi. Quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma'suliyatni his etish; o'ziga ishonch; o'qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko'ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko'ra bilish; tashxislash.

KLASTER (Klaster-tutam, bog`lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g`oyalarni yig`ish. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog`lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog`oz varag`ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog`liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g`oyalalar tugagunicha davom etishi mumkin. Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



BBB Jadvali - Bilaman/ BiliShni hohlayman/ Bilib oldim. Mayzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

BILAMAN	BILISHNI HOHLAYMAN	BILIB OLDIM

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, umumiylor ta'lim maktablari o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol texnologiyalaridan unumli foydalanish yaxshi natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.** Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Contents of Logopedic Rhythm Exercises Conducted with Children Who Stutter." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 36-39.
- 2.** Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Methodology of Memory Development in the Process of Working on the Passive and Active Vocabulary of Children with Undeveloped Speech." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 40-44.
- 3.** Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATINING TURLARI VA XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 162-168.
- 4.** Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "BOLALARDAGI NUTQIY RIVOJLANISHNING BUZILISHLARI VA NUTQNING TOLIQ RIVOJLANMAGANLIGI." Confrencea 12.12 (2023): 102-108.
- 5.** Muxtorova, M. B., and Muhammadjonov Shoxrux. "O 'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI HIMoya QILISH ASOSLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 87-91.
- 6.** Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "DEFEKTOLOGLARNI OILA BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHDA SHARQ MUTAFFAKIRLARINING QARASHLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 104-111.
- 7.** Raxmonovna, Kabirova Zarnigor. "DISGRAFIYADA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 98-103.
- 8.** Islomjon, Haydarov. "ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR HISSIYOTINING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 112-116.
- 9.** Xovodillayev, Murodjon. "LOGOPEDIK MASHGULOTLARNI TASHKIL ETISHDA O'YINLARNING KORREKSION AHAMIYATI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 117-123.
- 10.** Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISHI QONUNIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 61-69.
- 11.** Qizi, Xonbabayeva Madinabonu Asqarjon. "KOGNITIV JARAYONLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 53-60.

- 12.** Turgunovna, Yuldasheva Dilbar, and Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "Pedagogical Mechanism Of Preparing Future Teachers For Professional Competence Formation." *Onomázein* 62 (2023): December (2023): 2186-2191.